
IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ 9 NAFAR FUQAROGA SOG'LIQLARINI TIKLASHLARI UCHUN MODDIY YORDAM AJRATILDI



Qo'shtepa tumanida kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda og'ir ahvoldagi bemorlarni sog'liqlarini tiklashlari uchun ularga saxovat va ko'mak ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining qaroriga asosan, tumanimizda istiqomat qilayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar tomonidan kelib tushgan murojaatlarga asosan, ularning ijtimoiy-moddiy ahvoli inobatga olinib, jami 9 nafariga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan 79 624 140 (etmish to'qqiz million olti yuz yigirma to'rt ming bir yuz qirq) so'm miqdorda mablag' ajratildi.

Bugun, tuman hokimi I.Novikov mablag' ajratilgan ijtimoiy himoyaga muxtoj bemorlar va ularning yaqinlari bilan suhbatlashdi.

Ushbu fuqarolarning sog'liqlarini tiklash maqsadida operatsiya va dori-darmon vositalari uchun ajratilgan mablag'lar belgilangan tartibda shartnoma asosida o'tkazib beriladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-05 11:12:05